O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta
maxsus ta`lim vazirligi

Namangan
muhandislik–qurilish instituti

Oliy matematika kafedrasi

Oily matematika fanidan misol va masalalar yechish uchun uslubiy qo’llanma

II kurs talabalari uchun

NAMANGAN - 2017

Oliy matematika kafedrasi
uslubiy seminarida ko`rib chiqilib,
institut kengashiga tavsiya etilgan.
1-sonli majlis bayoni 2017 y

Namangan muhandislik-
qurilish instituti kengashi
tomonidan chop etishga ruxsat
etilgan.
1 -sonli majlis bayoni 2017 y
30.08.

Mualliflar: kat.oq. A.Muminov
ass. H.Po'latova

Taqrizchi: k. o'q. f.-m.f.n. B.Irgashev

2

Kirish

Ushbu masalalar to'plami oliy texnika o'quv yurti o'qituvchi va talabalari oliy matematika fanidan amaliy mashg`ulot darslarida foydalanish uchun mo`ljallangan. Unda keltirilgan mavzular amaldagi ishchi dasturiga mos bo'lib, 2-semestrda foydalanish mumkin.

To'plam oliy matematikaning aniq integral, ko'p o'zgaruvchili funksiyalar, karrali integrallar, differensial tenglamalar, matematik fizika va egri chiziqli integrallarni o`z ichiga qamrab olgan.

To'plamni yozishda hozirga qadar rus va o`zbek tillarida chop etilgan adabiyotlardan foydalanildi, hamda mualliflar to`plagan tajribaga asoslanib oddiydan murakkabga ketma-ketligini saqlashga harakat qilindi. Kitob o`quv dasturiga moslab yozilgan bo`lib, har bir mavzuga kerakli formulalar keltirilib, na`muna tarzida masalalarning yechilishi keltirilgan. Mustaqil ishlash va uy vazifasi uchun masalalar va ularning javoblari keltirilgan

Mualliflar to'plamni ilmiy va uslubiy jixatdan yaxshilash uchun bildiriladigan takliflarni mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

Mualliflar.

Aniq integral.

Aniq integralning xossalari   Nyuton - Leybnis formulasi.

1-misol. $\int_0^1 x^2 dx$; integralni ta`rif yordamida hisoblang.

Yechish: $f(x)=x^2$. $a=0$, $b=1$; $[0;1]$ kesmani n ta bo`lakka bo`lamiz.

$$\Delta x_k=(b-a)/n=1/n,\quad \xi_k=x_k \qquad x_0=0,\ x_1=\frac{1}{n};\ x_2=\frac{2}{n};\cdots;\ x_{n-1}=\frac{n-1}{n};\ x_n=\frac{n}{n}=1$$

$$f(\varsigma_1)=\left(\frac{1}{n}\right)^2;\ f(\varsigma_2)=\left(\frac{2}{n}\right)^2;\ldots,\ f(\varsigma_n)=\left(\frac{n}{n}\right)^2;\ f(\varsigma_k)\cdot\Delta x_k=\left(\frac{k}{n}\right)^2\cdot\frac{1}{n} \quad \text{u holda}$$

$$\int_0^1 x^2dx=\lim_{n\to\infty}\frac{1^2+2^2+3^2+\cdots+n^2}{n^2}=\lim_{n\to\infty}\frac{n(n+1)(2n+1)}{6n^3}=\lim_{n\to\infty}\frac{\left(1+\frac{1}{n}\right)\left(2+\frac{1}{n}\right)}{6}=\frac{1}{3}$$

2-misol. $\int_{-3}^{2}(2x+3)dx$ integralni hisoblang.

Yechish:

$$\int_{-3}^{2}(2x+3)dx=\int_{-3}^{2}2xdx+\int_{-3}^{2}3dx=x^2\Big|_{-3}^{2}+3x\Big|_{-3}^{2}=(2^2-(-3)^2)+(3\cdot 2-3\cdot(-3))=-5+15=10$$

3-misol. $\int_{\pi/6}^{\pi/4}\frac{4dx}{\cos^2 x}$ integralni hisoblang

Yechish: $$\int_{\pi/6}^{\pi/4}\frac{4dx}{\cos^2 x}=4\int_{\pi/6}^{\pi/4}\frac{dx}{\cos^2 x}=4\cdot tgx\Big|_{\frac{\pi}{6}}^{\frac{\pi}{4}}=4\cdot\left[tg\frac{\pi}{4}-tg\frac{\pi}{6}\right]=4\cdot\left(1-\frac{\sqrt{3}}{3}\right)$$

Darsda yechish uchun misollar.
Quyidagi integrallarni hisoblang.

98. $\int_1^3 x^3dx$, j. 20

99. $\int_1^4 \sqrt{x}dx$, j. $\frac{14}{3}$

100. $\int_1^2\left(x^2+\frac{1}{x^4}\right)dx$, j. $\frac{63}{24}$

101. $\int_0^{\pi/4}\sin 4xdx$, j. $\frac{1}{2}$

102. $\int_0^3 e^{\frac{x}{3}}dx$, j. 3(e-1)

103. $\int_a^{a\sqrt{3}}\frac{dx}{a^2+x^2}$, j. $\frac{\pi}{12a}$

104. $\int 3x^2dx$, j .26

105. $\int_1^4\frac{x+1}{\sqrt{x}}dx$, j. $6\frac{2}{3}$

106. $\int_{-1}^{7}\frac{dx}{\sqrt{3x+4}}$, j. $\frac{8}{3}$

107. $\int_0^1\frac{dz}{(2z+1)^3}$, j. $\frac{2}{9}$

108. $\int_0^1 x\sqrt{1+x}dx$, j. $\frac{4\left(\sqrt{2}+1\right)}{15}$

109. $\int_{\pi/8}^{\pi/4}ctg^2xdx$, j. $\frac{1}{2}-\frac{\pi}{8}$

110. $\int_0^{\pi}\cos\frac{x}{2}\cos\frac{3x}{2}dx$ j.0

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

111. $\int_0^3 \left(3^{1-x} + \left(\frac{1}{3}\right)^{2x-1}\right) dx$, j . $\frac{1066}{243\ln 3}$

112. $\int_{-2}^{2} \frac{x^3 + x^2 + x + 1}{x^2 + 1} dx$,j. 4

113. $\int_1^c \frac{x^2 + 1}{2x^2} dx$, j . $\frac{c^2 - 1}{2c}$

114. $\int_{-3}^{2} (5x + 2) dx$, j . $-2\frac{1}{2}$

115. $\int_1^3 (2x^2 + x + 1) dx$, j . $23\frac{1}{3}$

Aniq integralni o`zgaruvchini almashtirib integrallash

1-misol. $\int_0^1 \frac{x^2 dx}{(x+1)^2}$ integralni hisoblang.

Yechish:

$$\int_0^1 \frac{x^2 dx}{(x-1)^2} = \left| \begin{array}{l} t = x+1,\ x = 1;\ t = 2 \\ x = t-1,\ x = 0;\ t = 1 \\ dx = dt \end{array} \right| = \int_1^2 \frac{(t-1)^2}{t^2} dt = \int_1^2 \frac{t^2 - 2t + 1}{t^2} dt = \int_1^2 dt - 2\int_1^2 \frac{dt}{t} + \int_1^2 \frac{dt}{t^2} = t\Big|_1^2 - 2\ln t\Big|_1^2 - \frac{1}{t}\Big|_1^2 =$$

$$= 2 - 1 - 2\ln 2 - \frac{1}{2} + 1 = \frac{3}{2} + 2\ln 2$$

2-misol. $\int_0^{\pi/2} \cos^2 x \cdot \sin x dx$ integralni hisoblang.

Yechish: $$\int_0^{\pi/2} \cos^2 x \cdot \sin x dx = \left| \begin{array}{l} t = \cos x, dt = -\sin x dx \\ x = 0, \quad t = 1. \\ x = \frac{\pi}{2}; \quad t = 0 \end{array} \right| = -\int_1^0 t^2 dt = \frac{1}{3} t^3 \Big|_0^1 = \frac{1}{3}$$

Darsda yechish uchun misollar.
Quyidagi integrallarni hisoblang.

116. $\int_1^8 \frac{xdx}{\sqrt{3x-1}}$, j.8

117. $\int_0^1 \frac{x^2 dx}{\sqrt{4 - x^2}}$, j. $\frac{\pi}{3} - \frac{\sqrt{3}}{2}$

118. $\int_0^{\sqrt{a}} x^2 \sqrt{a^2 - x^2} dx$, j. $\frac{\pi a^2}{16}$

119. $\int_0^{\pi/2} x^2 \sqrt{9 - x^2} dx$, j. $\frac{81}{8}\pi$

120. $\int_1^2 \frac{dx}{(3x-4)^5}$, j. $1\frac{3}{12}$

121. $\int_3^8 \frac{xdx}{\sqrt{x+1}}$, j. $\frac{32}{3}$

122. $\int_{\frac{\sqrt{2}}{2}}^{1} \frac{\sqrt{1-x^2} dx}{x^2}$, j. $1 - \frac{\pi}{4}$

123. $\int_1^2 \frac{dx}{2x-1}$, j. $\frac{1}{2}\ln 3$

124. $\int_0^{\frac{\pi}{2}} \frac{cosxdx}{1+\sin^2 x}$, j. $\frac{\pi}{4}$

125. $\int_{\sqrt{3}}^{\sqrt{8}} x\sqrt{1+x^2}dx$, j. $\frac{19}{3}$

126. $\int_{-1}^{0} \frac{x^2 dx}{1-4x^3}$,

127. $\int_0^{\pi} \sin\left(\frac{\pi}{6}-2x\right)dx$,

128. $\int_0^{0.5} e^{\sin \pi x} \cos \pi x dx$,

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

129. $\int_1^3 x^3\sqrt{x^2-1}dx$, j. $\frac{464\sqrt{2}}{15}$

130. $\int_{-\frac{\pi}{12}}^{0} \sin\left(\frac{\pi}{4}-3x\right)dx$, j. $\frac{\sqrt{2}}{6}$

131. $\int_1^2 \frac{e^{\frac{1}{x}}}{x^2}dx$, j. $e-\sqrt{e}$

132. $\int_{25}^{196} \frac{dx}{x-4\sqrt{x}}$, j. $2\ln 10$

133. $\int_0^1 \frac{xdx}{1+x^4}$, j. $\frac{\pi}{8}$

134. $\int_4^{25} \frac{dx}{\sqrt{x}-1}$, j. $6+4\ln 2$

135. $\int_0^1 e^{x+e^x}dx$, j. $e^e - e$

136. $\int_1^3 \frac{\sqrt{x}}{x+1}dx$, j. $2\sqrt{3}-2-\frac{\pi}{6}$

Aniq integralni bo`laklab integrallash

Bo`laklab integrallash formulasi. $\int_a^b udv = (u\cdot v)\Big|_a^b - \int_a^b vdu$

1-misol. $\int_e^{e^2} x\ln xdx$ integralni hisoblang.

$$\int_e^{e^2} x\ln xdx = \left| \begin{matrix} u=\ln x, du=\frac{1}{x}dx \\ dv=xdx, v=\frac{x^2}{2} \end{matrix} \right| = \frac{x^2}{2}\ln x\Big|_e^{e^2} - \int_e^{e^2}\frac{x^2}{2}\cdot\frac{dx}{x} = e^4-\frac{e^2}{2}-\frac{1}{2}\frac{x^2}{2}\Big|_e^{e^2} = e^4-\frac{e^2}{2}-\frac{e^4}{4}+\frac{e^2}{4} =$$

$$=\frac{3}{4}e^4-\frac{e^2}{4}=\frac{e^2}{4}\left(3e^2-1\right)$$

2-misol $\int_0^1 xe^x dx$ integralni hisoblang.

Yechish: $\int_0^1 xe^x dx = \begin{vmatrix} u = x, du = dx \\ dv = e^x dx, v = e^x \end{vmatrix} = xe^x \Big|_0^1 - \int_0^1 e^x dx = e - e^x \Big|_0^1 = e - e + 1 = 1$

3-misol $\int_{-a}^{a} x\cos\frac{x}{a}dx$ integralni hisoblang.

Yechish:

$$\int_{-a}^{a} x\cos\frac{x}{a}dx = \begin{vmatrix} u = x, du = dx \\ dv = \cos\frac{x}{a}dx, v = a\sin\frac{x}{a} \end{vmatrix} = x \cdot a \cdot \sin\frac{x}{a}\Big|_{-a}^{a} - a\int_{-a}^{a}\sin\frac{x}{a}dx = a^2\sin 1 - (-a)a\sin(-1) -$$

$$- a \cdot a\left(\cos\frac{x}{a}\right)\Big|_{-a}^{a} = a^2\sin 1 - a^2\sin 1 + a^2\cos 1 + a^2\cos(-1) = 0$$

4 misol. $I = \int_0^{\pi/2} e^x \sin x dx$ integralni hisoblang.

Yechish:

$$I = \int_0^{\pi/2} e^x \sin x dx = \begin{vmatrix} u = e^x, dv = \sin x dx \\ du = e^x dx, v = -\cos x \end{vmatrix} = -e^x\cos x\Big|_0^{\pi/2} + \int_0^{\pi/2} e^x\cos x dx = \begin{vmatrix} u = e^x, dv = \cos x dx \\ du = e^x dx, v = \sin x \end{vmatrix} =$$

$$= -e^x\cos x\Big|_0^{\pi/2} + e^x\sin x\Big|_0^{\pi/2} - \int_0^{\pi/2} e^x\sin x dx = 1 + e^{\pi/2} - \int_0^{\pi/2} e^x \sin x dx$$

$$I = 1 + e^{\pi/2} - I$$

$$I = \frac{1}{2}(1 + e^{\pi/2})$$

Darsda yechish uchun misollar.

Aniq integrallarni bo`laklab integrallash yordamida hisoblang.

137. $\int_0^1 arctgx dx$, j. $\frac{\pi}{4} - \frac{1}{2}\ln 2$

138. $\int_1^4 \frac{\ln x}{\sqrt{x}}dx$, j. $4(\ln 4 - 1)$

139. $\int_0^1 xe^{3x}dx$, j. $\frac{2e^3 + 1}{9}$

140. $\int_0^1 \ln(x+1)dx$, j. $2\ln 2 - 1$

141. $\int_{-1}^1 xarctgx dx$, j. $\frac{\pi}{2} - 1$

142. $\int_1^e x^2 \ln x dx$, j. $\frac{2e^3 + 1}{9}$

143. $\int_0^{\pi/2} e^x \cos x dx$, j. $\frac{\left(e^{\frac{\pi}{2}} - 1\right)}{2}$

144. $\int_0^1 x\sin x dx$, j. π

145. $\int_1^e \sqrt[4]{x}\ln x dx$

146. $\int_1^e \sqrt[4]{x}\ln x dx$, j. $\frac{4\left(\sqrt[4]{e^5} + 4\right)}{25}$

147. $\int_{-1}^0 (2x+3)e^{-x}dx$, j. $3e - 5$

148. $\int_0^{\frac{\pi}{2}} (x-1)\cos x dx$, j. $\frac{\pi}{2} - 2$

149. $\int_0^1 xarctgxdx$, j. $\frac{\pi-2}{4}$

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

150. $\int_1^e \cos\ln xdx$, j. $\frac{e^{\frac{\pi}{2}}-1}{2}$

151. $\int_1^e x\ln^2 xdx$, j. $\frac{1}{4}\left(e^2-1\right)$

152. $\int_0^{\pi/2} x\cos xdx$, j. $\frac{\pi}{2}-1$

153. $\int_0^{\pi/2} e^{2x}\cos xdx$, j. $\frac{\pi^2-8}{32}$

154. $\int_1^e \ln^2 xdx$, j. $e-2$

155. $\int_{-1}^0 \arccos xdx$, j. $\pi-1$

Aniq integral yordamida yuzalarni hisoblash.

1-misol. $y=4x-x^2, y=0$ chiziqlar bilan chegaralangan soha yuzini toping.

Yechish: $y=4x-x^2$ va $y=0$ tenglamalarni birgalikda yechib, parabolani $0X$ o`qi bilan kesishish nuqtasini topamiz.
O(0;0) va M(4;0) nuqtalarda kesishadi.

$$S=\int_0^4 (4x-x^2)dx=\left[2x^2-\frac{1}{3}x^3\right]\Big|_0^4=\frac{32}{3} \quad \text{(kv.bir)}$$

Darsda yechish uchun misollar.

Quyidagi chiziqlar bilan chegaralangan sohani yuzini toping.

156. $y=-x^2, x+y+2=0$, j. $4{,}5$

157. $x=12\cos t+5\sin t, y=5\cos t-12\sin t$, j. $169\cdot\pi$

158. $y=16/x^2, y=17-x^2$ (I - CHorak) , j. 18

159. $x=a\cos^3 t, y=a\sin^3 t$ (astroida) , j. $\frac{3\pi a^2}{8}$

160. $y^2=4x^3, y=2x^2$, j. $\frac{2}{15}$

161. $xy=20, x^2+y^2=41$ (I - CHorak) , j. $\frac{41}{2}\arcsin\frac{9}{41}+20\ln\left(0{,}8\right)$

162. $y=\sin x, y=\cos x, x=0$, j. $\sqrt{2}-1$

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

Quyidagi chiziqlar bilan chegaralangan sohani yuzini toping

163. $y=0.25x^2, y=3x-0.5x^2$, j. 8

164. $xy=4\sqrt{2}, x^2-6x+y^2=0, y=0, x=4$, j. $\frac{9\pi}{4}-\sqrt{2}+4\sqrt{2}\ln 2-\frac{9}{2}\arcsin\left(\frac{1}{3}\right)$

165. $y=\frac{x^2}{2}, \quad x=1, \quad x=3$ parabola va to`g`ri chiziqlar va OX o`qi bilan chegaralangan soha yuzini hisoblang. , j. $\frac{13}{3}$

166. $x = 2 - y - y^2$ egri chiziq va ordinatalar o`qi bilan chegaralangan figuraning yuzini hisoblang. , j. $\frac{9}{2}$

Aniq integral yordamida jism hajmini hisoblang

1-masala $y^2 = (x-1)^3$ va $x = 2$ chiziqlar bilan chegaralangan figurani OX o`qi atrofida aylantirishdan hosil bo`lgan jismning hajmini hisoblang.
YEchish



$$V = \pi \int_1^2 y^2 dx = \pi \int_1^2 (x-1)^3 dx = \frac{1}{4}\pi (x-1)^4 \Big|_1^2 = \frac{1}{4}\pi \text{ (kub bir.)}$$

2-masala. $y = Sin\, x$ sinusoidaning yarim to`lqini OX o`qining $[0, \pi]$ kesmasi bilan chegaralangan figuraning OY o`qi atrofida aylanishidan hosil bo`lgan jismning hajmini hisoblang.
YEchish

$$V = 2\pi \int_0^\pi xy\, dx = 2\pi \int_0^\pi x Sin\, x\, dx = \begin{vmatrix} u = x\ , & du = dx \\ dv = Sin\, x\ , & v = -Cos\, x \end{vmatrix} = 2\pi \left(-x Cos\, x \Big|_0^\pi + \int_0^\pi Cos\, x dx \right) =$$

$$= 2\pi \left(-\pi \cos \pi + Sin\, x \Big|_0^\pi \right) = 2\pi^2 \text{ (куб бир.)}$$

3-masala Y=x^2 va y^2=8x parabolalar bilan chegaralangan figurani 0u o`qi atrofida aylantirishdan hosil bo`lgan jism xajmini hisoblang.

Yechish: y=x^2 va y^2=8x tenglamalarni birgalikda yechib kesishish nuqtalarini topamiz. X=0 va x=2

$$V_y = 2\pi \int_a^b x(y_2 - y_1) dx = 2\pi \int_0^2 x\left(\sqrt{8x} - x^2\right) dx = 2\pi \int_0^2 \left(\sqrt{8} x^{\frac{3}{2}} - x^3 \right) dx = 2\pi \left(\sqrt{8} \frac{2}{5} x^{\frac{5}{2}} - \frac{x^4}{4} \right) \Bigg|_0^2 =$$

$$= 2\pi \left(\frac{2\sqrt{8 \cdot 32}}{5} - 4 \right) = 2\pi \left(\frac{2 \cdot 16}{5} - 4 \right) = 2\pi \frac{12}{5} = \frac{24\pi}{5} \quad \text{kub birlik}$$

Darsda yechish uchun misollar.

Quyidagi chiziqlar bilan chegaralangan figuralarni koordinata o`qlari atrofida aylantirishidan hosil bo`lgan jismlarning hajmini toping.

167. $xy=9$, $y=3$, $y=9$ $0y$ o`q atrofida , ж. 18π

168. $y=10-x^2$, $y=x^2+2$ $0y$ o`q atrofida, ж. $0{,}16\pi$

169. $y=4-x^2$, $2x+y-4=0$ $0x$ o`q atrofida, ж. $6{,}4\pi$

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

Quyidagi chiziqlar bilan chegaralangan figuralarni koordinata o`qlari atrofida aylantirishidan hosil bo`lgan jismlarning hajmini toping.

175. $y=\cos\left(x-\dfrac{\pi}{3}\right)$, $x=0$, $y=0$, $(x>0)$ $0x$ o`q atrofida , j. $\dfrac{\pi}{4}\left(\dfrac{5\pi}{3}+\dfrac{\sqrt{3}}{2}\right)$

176. $x^2-y^2=4$, $y=2$ $0y$ o`q atrofida , j. $\dfrac{32\pi}{3}$

177. $x=\sqrt{y}$ $y=1$ $y=4$ $0y$ o`q atrofida , j. $\dfrac{15\pi}{2}$

178. $y=3x^2$ parabola $x=0$ $x=2$ $0x$ o`q atrofida , j. $57{,}6\pi$

Yoy uzunligi va sirt yuzalarni hisoblash

1-masala $y^2=x^3$ yarim kubik parabolaning koordinatalar boshidan A(4;8) nuqtagacha bo`lgan yoyi uzunligini toping.

Yechish: $y^2=x^3,\ \ y=x^{\frac{3}{2}},\ \ y'=\dfrac{3}{2}x^{\frac{1}{2}}$

$$L=\int_0^4\sqrt{1+\left(\frac{3}{2}x^{\frac{1}{2}}\right)^2}\,dx=\int_0^4\sqrt{1+\frac{9}{4}x}\,dx=\frac{4}{9}\cdot\frac{2}{3}\left(1+\frac{9}{4}x\right)^{\frac{3}{2}}\Bigg|_0^4=\frac{8}{27}\left(10\sqrt{10}-1\right)\text{ (uzunlik birligi)}$$

2-masala X=a(t-sint), y=a(1-cost) sikloidaning bir arki uzunligini toping.

Echish: $x'=a(1-\cos t)$; $y'=a\sin t$

$$L=\int_0^{2\pi}\sqrt{a^2(1-\cos t)^2+a^2\sin^2 t}\,dt=a\int_0^{2\pi}\sqrt{2-2\cos t}\,dt=$$

$$=2a\int_0^{2\pi}\sin\frac{t}{2}dt=-4a\cos\frac{t}{2}\Bigg|_0^{2\pi}=8a\ \text{(uzunlik birlik)}$$



3- masala $r=a\sin^4\dfrac{\varphi}{4}$ yopik egri chiziq uzunligini toping.

Yechish: Berilgan funksiya juft funksiya. SHu sababli berilgan egri chiziq qutb o`kiga nisbatan simmetrik.

Nuqta butun egri chiziqni (burchak 0 dan 2π gacha o`zgarganda chizadi.

$r'=a\sin^3\dfrac{\varphi}{4}\cdot\cos\dfrac{\varphi}{4}$,



demak,

$$\frac{L}{2}=\int_0^{2\pi}\sqrt{a^2\sin^8\frac{\varphi}{4}+a^2\sin^6\frac{\varphi}{4}\cdot\cos^2\frac{\varphi}{4}}d\varphi=a\int_0^{2\pi}\sin^3\frac{\varphi}{4}d\varphi=-4a\int_0^{2\pi}\sin^2\frac{\varphi}{4}\cdot d\left(\cos\frac{\varphi}{4}\right)=$$

$$=-4a\int_0^{2\pi}\left(1-\cos^2\frac{\varphi}{4}\right)d\left(\cos\frac{\varphi}{4}\right)=-4a\left(\cos\frac{\varphi}{4}-\frac{\cos^3\frac{\varphi}{4}}{3}\right)\Bigg|_0^{2\pi}==-4a\left(1-\frac{1}{3}\right)=\frac{8}{3}a$$

demak, $L=\frac{16}{3}a$ (uzunlik birlik)

Darsda yechish uchun misollar.

Quyidagi egri chiziqlar yoylari uzunliklarini hisoblang.

181. $y=\ln(\sin x)$, $\frac{\pi}{3}\le x\le\frac{\pi}{2}$ j. $\frac{1}{2}\ln 3$

182. $x=\frac{1}{3}t^3-t,\quad y=t^2+2,\quad 0\le t\le 3$ j. $\sqrt{2}(\pi-1)$

183. $x=e^t\cos t.,\quad y=e^t\sin t\qquad t=0\qquad t=\ln\pi$ j. 12

Egri chiziq yoyining 0x o`qi atrofida aylanishdan hosil bo`lgan jism sirti yuzini hisoblang.

184. $y=x^3$, $0\le x\le\frac{1}{2}$ j. $\frac{61\pi}{1728}$

185. $x=t-\sin t$, $y=1-\cos t$ (bir arkasi) j. $\frac{64\pi}{3}$

186. $y=\frac{64}{x^2+16},\quad x^2=8y$ $0x$ o`q atrofida j. $16\pi(5\pi+\frac{8}{5})$

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

Egri chiziq yoyining 0x o`qi atrofida aylanishdan hosil bo`lgan jism sirti yuzini hisoblang.

187. $y^2=x$, $x^2=y$ $0y$ o`q atrofida j. $0{,}3\pi$

188. $y=\frac{x^2}{2}$, $y=\frac{x^3}{8}$ j. $\frac{4\pi}{35}$

Xosmas integrallarni hisoblash

$\int_a^{+\infty}f(x)dx\qquad\int_{-\infty}^{b}f(x)dx\qquad\int_{-\infty}^{+\infty}f(x)dx$ - ko`rinishidagi integrallar chegarasi cheksiz xosmas integrallar deyiladi.

$$\int_a^{+\infty}f(x)dx=\lim_{b\to+\infty}\int_a^b f(x)dx,\qquad\int_{-\infty}^{b}f(x)dx=\lim_{a\to-\infty}\int_a^b f(x)dx$$

$$\int_{-\infty}^{+\infty} f(x)dx = \int_{-\infty}^{c} f(x)dx + \int_{c}^{+\infty} f(x)dx$$

ko`rinishida hisoblanadi.
Agar limit mavjud va chekli bo`lsa xosmas integral yaqinlashuvchi, aks xolda uzoqlashuvchi deyiladi.

1-misol. $\int_{a}^{+\infty} \cos xdx$ xosmas integralni hisoblang.

Yechish: $\int_{a}^{+\infty} \cos xdx = \lim_{b\to+\infty} \int_{0}^{b} \cos xdx = \lim_{x\to+\infty} \sin x /_{0}^{b} = \lim_{x\to+\infty} (\sin b - \sin 0) = \lim_{b\to+\infty} \sin b$

bunday limit mavjud emas . Demak, xosmas integral uzoklashuvchi.

2-misol. $\int_{-\infty}^{-1} \frac{dx}{x^2}$ xosmas integralni hisoblang.

Yechish: $\lim_{a\to-\infty} \int_{a}^{-1} \frac{dx}{x^2} = \lim_{a\to-\infty} \left[-\frac{1}{x} \right] \Big|_{a}^{-1} = \lim_{a\to-\infty} \left(1 + \frac{1}{a} \right) = 1$

limit chekli, demak, xosmas integral yaqinlashuvchi.

3-misol $\int_{-\infty}^{+\infty} \frac{dx}{1+x^2}$ xosmas integralni hisoblang.

Yechish: Integral ostidagi funksiya juft bo`lganligi sababli

$$\int_{-\infty}^{+\infty} \frac{dx}{1+x^2} = 2\int_{0}^{+\infty} \frac{dx}{1+x^2}$$

$$\int_{0}^{+\infty} \frac{dx}{1+x^2} = \lim_{b\to+\infty} \int_{0}^{b} \frac{dx}{1+x^2} = \lim_{b\to+\infty} arctgx \Big|_{0}^{b} = \lim_{b\to+\infty} arctgb = \frac{\pi}{2}$$

Demak,

$$\int_{-\infty}^{+\infty} \frac{dx}{1-x^2} = 2 \cdot \frac{\pi}{2} = \pi$$

Xosmas integral chekli limitga ega. Demak, integral yaqinlashuvchi.

4-misol. $\int_{0}^{+\infty} xe^{-x^2} dx$ xosmas integralni hisoblang.

Yechish:

$$\int_{0}^{+\infty} xe^{-x^2} dx = \lim_{b\to+\infty} \int_{0}^{b} xe^{-x^2} dx = \lim_{b\to+\infty} \left[-\frac{1}{2} e^{-x^2} \right]_{0}^{b} = \lim_{b\to+\infty} \left(\frac{1}{2} - \frac{e^{-b^2}}{2} \right) = \frac{1}{2}$$

Limit chekli, demak, xosmas integral yaqinlashuvchi

Darsda yechish uchun misollar

Xosmas integrallarni hisoblang va yaqinlashuvchilikka tekshiring.

278. $\int_{0}^{+\infty} \frac{ardtgx}{1+x^2} dx$ j: $\frac{256}{15}$

280. $\int_{-\infty}^{0} \frac{dx}{4+x^2}$ j: yaqinlashuvchi

279. $\int_{0}^{2} \frac{x^5}{4-x^2} dx$ j: $+\infty$

281. $\int_{0}^{1} \frac{dx}{\sqrt{x(1-x)}}$ j: $\frac{\pi}{6}$

282. $\int_{-1}^{1}\frac{dx}{x^2}$ j: $\frac{\pi}{6}$ 283. $\int_{0}^{1} x\lim^2 xdx$ j: π

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

284. $\int_{1}^{+\infty}\left(1-\cos\frac{2}{x}\right)dx$ j: yaqinlashuvchi 286. $\int_{1}^{+\infty}\frac{xarctgx}{\sqrt{1+x^2}}$ j: uzoqlashuvchi

285. $\int_{0}^{1}\frac{dx}{e^{\sqrt[3]{x}}-1}$ j: uzoqlashuvchi 287. $\int_{0}^{1}\frac{dx}{tgx-x}$

O`zgaruvchilari ajralgan va ajraladigan tenglamalar

Ushbu M(x)dx+N(y)dy=0 ko`rinishdagi tenglamaga o`zgaruvchilari ajralgan differensial tenglama deyiladi. Uning o`ziga xos tomoni shundaki, dx oldida faqat x ga bog`liq ko`paytuvchi, dy oldida esa faqat y ga bog`liq ko`paytuvchi turadi. Bu tenglamaning yechimi uni hadma-had integrallash yo`li bilan aniqlanadi:

$$\int M(x)dx+\int N(y)dy=C$$

Differensial tenglamaning oshkormas holda ifodalangan yechimi bu tenglamaning integrali deyiladi. Integrallash doimiysi C ni yechim uchun qulay ko`rinishda tanlash mumkin.

1- misol: tgxdx-ctgydy=0 tenglamaning umumiy yechimini toping.

Yechish: Bu yerda o`zgaruvchilari ajralgan tenglamaga egamiz. Uni hadma-had integrallaymiz:

$\int tgxdx-\int ctgydy=C$ yoki $-\ln|\cos x|-\ln|\sin y|=-\ln\overline{C}$

Bu yerda integrallash doimiysi C ni $-\ln\overline{C}$, ya`ni C= - $\ln\overline{C}$ orqali belgilash qulaydir, bundan

$\ln\sin y\cdot\cos x=\ln\overline{C}$ yoki $\sin y\cdot\cos x=\overline{C}$ umumiy integralni topamiz.

Ta`rif.

$$y' = f_1(x)f_2(y) \qquad (1)$$

ko`rinishdagi tenglamalar o`zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglamalar deb ataladi, bu yerda $f_1(x)$ va $f_2(y)$ uzluksiz funksiyalar. (1) tenglamani yechish uchun unda o`zgaruvchilarni ajratish kerak. U holda (1) tenglama

$$\frac{dy}{f_2(y)}=f_1(x)dx \qquad (2)$$

ko`rinishga keladi. Bu tenglamada x o`zgaruvchi faqat o`ng tomonda, y o`zgaruvchisi esa chap tomonda ishtirok etyapti, ya`ni o`zgaruvchilar ajratildi. (2) tenglikni har ikki tomonini integrallab,

$$\int\frac{dy}{f_2(y)}=\int f_1(x)dx+C$$

ekanligini hosil qilamiz, bu yerda C ixtiyoriy o`zgarmas.

2-misol. y' =y/x tenglamani yeching.

Yechish: Berilgan tenglama (2) ko`rinishdagi tenglama, bu yerda $f_1(x)=1/x$ va $f_2(y)=y$. O`zgaruvchilarni ajratib, $\frac{dy}{y}=\frac{dx}{x}$ tenglamani hosil qilamiz. Uni integrallab $\int\frac{dy}{y}=\int\frac{dx}{x}+\ln C$, C>0 yoki lny+lnx=lnC va bu tenglikni potensirlab, y=Cx umumiy yechimni topamiz.

Faraz qilaylik, y=Cx umumiy yechimdan $x_0=1$, $y_0=2$ boshlangich shartlarni qanoatlantiruvchi xususiy yechim topish talab qilinyapti. Bu qiymatlarni y=C·x гa **x** вa **y** larni o`rniga qo`yib, 2=C·1 yoki C= 2 ni topamiz. Demak, xususiy yechim y=2x ekan.

<u>Quyidagi tenglamalarni yeching</u>

1. $x(y^2-4)dx+ydy=0$ J: $y^2-4=Ce^{-x^2}$
2. $y'\cos x=y/\ln y$, $y(0)=1$ J: $\frac{1}{2}\ln 2y\ln tg(\frac{x}{2}+\frac{\pi}{4})$
3. $y'=tgx\cdot tgy$. J: $\sin y\cos x=C$
4. $(1+x^2)dy+ydx=0$, $y(1)=1$. J: $y=e^{\frac{\pi}{4}arctgx}$
5. $\ln\cos y\,dx+x\,tgy\,dy=0$. J: $y=\arccos e^{cx}$
6. $\frac{yy'}{x}+e^y=0$, $y(1)=0$ J: $2e^{-y}(y+1)=x^2+1$
7. $y/y'=\ln y$, $y(2)=1$ J: $2(x-2)=\ln^2 y$
8. $y'+\sin(x+y)=\sin(x-y)$ J: $2\sin x+\ln\left|tg\frac{x}{2}\right|=C$
9. $x\sqrt{1+y^2}dx+y\sqrt{1+x^2}dy=0$ J: $\sqrt{1+x^2}+\sqrt{+y^2}=C$
10. $y'=2^{x-y}$, $y(-3)=-5$ J: $2^x-2^y=\frac{3}{32}$
11. $y'=sh(x+y)+sh(x-y)$ J: $y=\ln tg(chx+C)$
12. $x(y^6+1)dx+y^2(x^4+1)dy$, $y(0)=1$ J: $arctgx^2+2arctgy^3=\frac{\pi}{2}$

Bir jinsli va bir jinsliga keltiriladigan differensial tenglamalar Birinchi tartibli bir jinsli differensial tenglamalar

**1-Ta`rif.** f(x,y) funksiya x va y o`zgaruvchilarga nisbatan n- o`lchovli bir jinsli funksiya deb ataladi, agarda ixtiyoriy λ uchun

$$f(\lambda x,\lambda y)=\lambda^n f(x,y)$$

ayniyat o`rinli bo`lsa.

**2-Ta`rif**. Agarda f(x, y) funsiya x va y ga nisbatan 0- o`lchovli bir jinsli funksiya bo`lsa birinchi tartibli

$$\frac{dy}{dx}=f(x,y) \qquad (3)$$

differensial tenglama x va y ga nisbatan bir jinsli differensial tenglama deb ataladi.

Bir jinsli differensial tenglamani yechish. Faraz qilaylik, (3) bir jinsli differensial tenglama berilgan bo`lsin, u holda shartga ko`ra $f(\lambda x,\lambda y)=\lambda^0 f(x,y)$. Bu ayniyatda $\lambda=\frac{1}{x}$ deb olsak, $f(x,y)=f(1,\frac{y}{x})$ ni hosil qilamiz. Bu holda (3) tenglama quyidagi ko`rinishga keladi:

$$\frac{dy}{dx}=f(1,\frac{y}{x}) \qquad (4)$$

(4) da $u=\frac{y}{x}$, $y=u\cdot x$ almashtirish bajaramiz.

U holda $\frac{dy}{dx}=u+\frac{du}{dx}\cdot x$ ni hosil qilamiz. Hosilaning bu ifodasini (4) ga qo`yib,

$u+\frac{du}{dx}\cdot x=f(1,u)$ yoki $\frac{du}{f(1,u)-u}=\frac{dx}{x}$ tenglikni hosil qilamiz. Bu esa o`zgaruvchilari ajralgan differensial tenglamadir. Integrallab quyidagini topamiz:

$$\int\frac{du}{f(1,u)-u}=\int\frac{dx}{x}+\ln C\ ,\ \int\frac{du}{f(1,u)-u}=\ln|Cx|\ .$$

Integrallarni topgandan so`ng u o`rniga $\frac{y}{x}$ ni qo`yib, berilgan tenglamaning integralini $y=y(x,c)$ ko`rinishida topamiz.

3-misol. $\frac{dy}{dx}=\frac{xy}{x^2-y^2}$ tenglamani yeching.

Yechish: Tenglamaning o`ng tomonidagi funksiya 0-o`lchovli bir jinsli funksiya bo`lgani uchun tenglama bir jinsli differensial tenglama, shuning uchun $\frac{y}{x}=u$ almashtirishni bajaramiz. U holda y=ux, $\frac{dy}{dx}=u+x\cdot\frac{du}{dx}$. Bularni tenglamaga qo`yib $u+x\cdot\frac{du}{dx}=\frac{u}{1-u^2}$ yoki $x\cdot\frac{du}{dx}=\frac{u^3}{1-u^2}$ va o`zgaruvchilarni ajratib, $\frac{(1-u^2)du}{u^3}=\frac{dx}{x}$, ya`ni $(\frac{1}{u^3}-\frac{1}{u})du=\frac{dx}{x}$ tenglamaga kelamiz. Integrallash natijasida $-\frac{1}{2u^2}-\ln|u|=\ln|x|+\ln|C|$ yoki $-\frac{1}{2u^2}=\ln|uxc|$ munosabatlarni hosil qilamiz. Oxirgi tenglikda **u** o`rniga $\frac{y}{x}$ ni qo`yib, $-\frac{x^2}{2y^2}=\ln|cx|$ tenglamaning umumiy integralini topamiz. Ko`rinib turibdiki, y ni **x** orqali elementar funksiyalar yordamida ifodalab bo`lmaydi. Biroq **x** ni y orqali ifodalash mumkin: $x=y\sqrt{-2\ln|Cy|}$

4-misol. $\frac{dy}{dx}=\frac{x+y-3}{x-y-1}$ tenglamani yeching.

Yechish: Tenglamani bir jinsli tenglamaga aylantirish uchun $x=x_1+h$, $y=y_1+k$ almashtirishni bajaramiz. U holda tenglama $\frac{dy_1}{dx_1}=\frac{x_1+y_1+h+k-3}{x_1-y_1+h-k-1}$, h+k-3=0, h-k-1=0 tenglamalar sistemasini yechib h=2, k=1 ekanligini topamiz. Natijada bir jinsli $\frac{dy_1}{dx_1}=\frac{x_1+y_1}{x_1-y_1}$ tenglmani hosil qilamiz. $\frac{y_1}{x_1}=u$ almashtirishni bajarsak, u holda $y_1=ux_1$, $\frac{dy_1}{dx_1}=u+x_1\cdot\frac{du}{dx_1}$, $u+x_1\cdot\frac{du}{dx_1}=\frac{1+u}{1-u}$ bo`ladi va natijada $x_1\cdot\frac{du}{dx_1}=\frac{1+u^2}{1-u}$ o`zgaruvchilari ajraladigan tenglamaga ega bo`lamiz. O`zgaruvchilarni ajratamiz: $\frac{1-u}{1+u^2}du=\frac{dx_1}{x_1}$ integrallab $arctgu-\frac{1}{2}\ln(1+u^2)=\ln|x_1|+\ln|C|$, $arctgu=\ln\left|Cx_1\sqrt{(1+u^2)}\right|$ yoki $Cx_1\sqrt{1+u^2}=e^{arctgu}$ ekanligini topamiz.u o`rniga $\frac{y_1}{x_1}$ ifodani qo`yib, $C\sqrt{x_1^2+y_1^2}=e^{arctg\frac{y_1}{x_1}}$ ekanligini, va nihoyat, x va y o`zgaruvchilarga o`tib $C\sqrt{(x-2)^2+(y-1)^2}=e^{arctg\frac{y-1}{x-2}}$ natijani hosil qilamiz.

Quyidagi tenglamalarni yeching.

13. $(x^2+2xy)dx+xydy=0$ J: $\ln|x+y|+\dfrac{x}{x+y}=C$

14. $y'=\dfrac{y}{x}+\sin\dfrac{y}{x},\ \ y(1)=\dfrac{\pi}{2}$ J: $y=2xarctgx$

15. $xy'\sin(\dfrac{y}{x})+x=y\sin(\dfrac{y}{x})$ J: $Cx=e^{\cos\frac{y}{x}}$

16. $xy+y^2=(2x^2+xy)\cdot y'$ J: $y^2=Cxe\dfrac{-y}{x}$

17. $xyy'=y^2+2x^2$ J: $y^2=4x^2\ln Cx$

18.18. $y`=(\dfrac{y}{x})+\cos(\dfrac{y}{x})$ J: 1+sin(y/x)=Cxcos(y/x).

19. $(x^2+y^2)dx-xydy=0$ J: $y^2=x^2\ln Cx^2$.

20. $(x+y+2)dx+(2x+2y-1)dy=0$ J: x+2y+5ln$|x+y-3|$=C.

21. $(2x+y+1)dx+(x+2y-1)dy=0$ J: $x^2+y^2+xy+x-y=C_1, C_1=C^2-1$.

22. $2(x+y)dy+(3x+3y^{-1})dx=0, y(0)=2$ J: 3x+2y-4+2ln$|x+y-1|$=0.

11. Chiziqli differensial tenglamalar. Bernulli tenglamasi

1. Chiziqli differensial tenglamalar

**Ta`rif.** Noma`lum funksiya va uning hosilasiga nisbatan chiziqli bo`lgan tenglamaga chiziqli differensial tenglama deyiladi. Bunday tenglama

$$\frac{dy}{dx}+P(x)\cdot y=Q(x) \tag{11}$$

ko`rinishga ega bo`ladi, bu yerda P(x) va Q(x) berilgan uzluksiz funksiyalar.

$$y=e^{-\int Pdx}\left[\int Q(x)e^{\int Pdx}dx+C\right]$$

(11) ning umumiy yechimi bo`ladi.

1-misol. $\dfrac{dy}{dx}-\dfrac{2}{x+1}\cdot y=(x+1)^3$ tenglamani yeching.

Yechish: y=u v deb olsak, u holda $\dfrac{dy}{dx}=u\dfrac{dv}{dx}+v\dfrac{du}{dx}$

$\dfrac{dy}{dx}$ ifodasini berilgan tenglamaga qo`ysak,

$$u\frac{dv}{dx}+\frac{du}{dx}v-\frac{2}{x+1}uv=(x+1)^3$$

yoki

$$u(\frac{dv}{dx}-\frac{2}{x+1}v)+\frac{du}{dx}v=(x+1)^3. \tag{15}$$

v funksiyani aniqlash uchun $\dfrac{dv}{dx}-\dfrac{2}{x+1}v=0$ yoki $\dfrac{dv}{v}=\dfrac{2dx}{x+1}$ tenglamani hosil qilamiz. Bu yerdan ln| v|= 2ln|x+1| yoki $v=(x+1)^2$.

v ni ifodasini (15) tenglikka qo`yib, u ni aniqlash uchun $(x+1)^2 \frac{du}{dx} = (x+1)^3$ yoki $\frac{du}{dx} = x+1$ tenglamani hosil qilamiz, bu yerdan $u = \frac{(x+1)^2}{2} + C$. Demak, berilgan tenglamaning umumiy yechimi $y = \frac{(x+1)^4}{2} + C(x+1)^2$ bo`lar ekan.

Bernulli tenglamasi

Ta`rif.

$$\frac{dy}{dx} + P(x)\cdot y = Q(x)\cdot y^n, \ n \geq 2.$$

ko`rinishdagi tenglama Bernulli tenglamasi deb ataladi, bu yerda P(x) va Q(x) berilgan uzluksiz funksiyalar, n≠0;1.

Tenglamaning barcha hadlarini y^n ga bo`lamiz

$$y^{-n}\frac{dy}{dx} + P(x)\cdot y^{-n+1} = Q(x) \qquad (16)$$

va $z=y^{-n+1}$ almashtirishni bajaramiz, u holda

$$\frac{dz}{dx} = (-n+1)\cdot y^{-n}\frac{dy}{dx}.$$

Topilgan qiymatni (16) tenglamaga qo`yib, $\frac{dz}{dx} + (-n+1)P\cdot z = (-n+1)\cdot Q$ chiziqli tenglamani hosil qilamiz. CHiziqli tenglamaning umumiy integralini topgandan so`ng, z o`rniga $y^{-n+1}$ ni qo`yib, Bernulli tenglamasining umumiy integralini hosil qilamiz.

2–misol. Ushbu

$$\frac{dy}{dx} + xy = x^3\cdot y^3$$

tenglamani yeching.

Yechish: Tenglamaning barcha hadlarini u^3 ga bo`lamiz

$$y^{-3}\frac{dy}{dx} + xy^{-2} = x^3. \qquad (17)$$

va $z=\mathbf{y}^{-2}$ almashtirishni bajaramiz, u holda $\frac{dz}{dx} = -2y^{-3}\frac{dy}{dx}$. Bu qiymatlarni (17) ga qo`yib

$$\frac{dz}{dx} - 2xz = -2x^3 \qquad (18)$$

chiziqli tenglamani hosil qilamiz. Uning umumiy integralini topamiz:

$$z=u\cdot\vartheta, \ \frac{dz}{dx} = u\frac{d\vartheta}{dx} + \vartheta\frac{du}{dx}.$$

Bu ifodalarni (18) tenglamaga qo`yamiz: $u\frac{d\vartheta}{dx} + \vartheta\frac{du}{dx} - 2xu\vartheta = -2x^3$ yoki $u(\frac{d\vartheta}{dx} - 2x\vartheta) + \vartheta\frac{du}{dx} = -2x^3$ qavs ichidagi ifodani nolga tenglab, $\frac{d\vartheta}{dx} - 2x\vartheta = 0$, $\frac{d\vartheta}{\vartheta} = 2xdx$, $\ln|\vartheta| = x^2$, $\vartheta = e^{x^2}$ ekanligini topamiz. u ni aniklash uchun

$$e^{x^2}\cdot\frac{du}{dx} = -2x^3$$

tenglamaga ega bo`lamiz. O`zgaruvchilarni ajratib

$$du = -2e^{-x^2}x^3dx, \ u = -2\int e^{-x^2}x^3dx + C$$

ekanligini topamiz. Oxirgi integralni bo`laklab

$$u = x^2e^{-x^2} + e^{-x^2} + C, \;\; z = u\cdot\vartheta = x^2 + 1 + Ce^{x^2}$$

ifodalarni topamiz. Demak, berilgan tenglamaning umumiy integrali $y^{-2} = x^2 + 1 + Ce^{x^2}$ yoki $y = \dfrac{1}{\sqrt{x^2 + 1 + Ce^{x^2}}}$ bo`lar ekan.

Quyidagi tenglamalarni yeching.

25. **y′cos²x+y=tgx, y(0)=0** **J:** $y=tgx-1+e^{-tgx}$.

26. $y' + \dfrac{2y}{x} = 3x^2y^{4/3}$ J**:** $y^{-1/3}=Cx^{2/3}-(3/7)x^{3}$.

27. $y'-ythx=ch^2x$ J**:** y=chx(shx+C).

28. $y' - \dfrac{y}{x-1} = \dfrac{y^2}{x-1}$ J**:** y=(x-1)(C-x).

29. $y' + \dfrac{xy}{1-x^2} = \arcsin x + x$ J**:** y= $\sqrt{1-x^2}\,[\frac{1}{2}(\arcsin\, x)^2 - \sqrt{1-x^2} + C]$.

30. $4xy'+3y=-e^x\cdot x^4y^5$ J**:** $y^{-4}=x^3(e^x+C)$.

31. $xy'-y=x^2\cos x$ J**:** y=x(sinx+C).

32. $y' + \dfrac{3x^2y}{x^3+1} = y^2(x^3+1)\sin x,$ y(0)=1 J**:** $y=\sec x/(x^3+1)$.

33. $y' + 2xy = xe^{-x^2}$ J**:** y= $e^{-x^2}(x^2/2 + C)$.

34. $ydx+(x+x^2y^2)dy=0$ J**:** x=1/[y(y+C)].

35. y′cosx+y=1-sinx J**:** cosx(x+C)/(1+sinx).

36. $y' + \dfrac{y}{x} = x^2y^4$ J**:** y= $\dfrac{1}{x\sqrt[3]{3\ln(C/x)}}$.

37. $(x^2\ln y-x)y'=y$ J: x= $\dfrac{1}{\ln y + 1 - Cy}$.

To`la differensialli tenglama. Integrallovchi ko`paytuvchi to`la differensialli tenglama

**Ta`rif.** Agar M(x,y)dx+N(x,y)dy=0 ko`rinishdagi tenglamaning chap qismi biror u(x,y) funksiyaning to`liq differensiali, ya`ni

$$du=M(x,y)dx+N(x,y)dy \qquad (19)$$

bo`lsa, u holda bunday tenglama to`liq differensialli tenglama deyiladi.
(19) tenglama to`liq differensialli tenglama bo`lishi uchun

$$\frac{\partial M}{\partial y} = \frac{\partial N}{\partial x}$$

shart bajarilishi kerak.

3–misol. $(3x^2+6xy^2)dx+(6x^2y+4y^3)dy=0$ tenglamaning umumiy yechimini toping.
Yechish: Bu yerda $M(x,y)=3x^2+6xy^2$, $N(x,y)=6x^2y+4y^3$.

$\frac{\partial N}{\partial y}=12xy, \quad \frac{\partial N}{\partial x}=12xy,$ yani $\frac{\partial M}{\partial y}=\frac{\partial N}{\partial x}.$ $\frac{\partial u}{\partial x}=M(x,y)$ bo`lganligi sababli $\frac{\partial u}{\partial x}=3x^2+6xy^2.$

Bu tenglikni x bo`yicha integrallaymiz: $u=x^3+3x^2y^2+\varphi(y)$. Bundan $\frac{\partial u}{\partial y}=6x^2y+\varphi'(y).$

$\frac{\partial u}{\partial y}=N(x,y)$ ekanligini hisobga olsak,

$\varphi'(u)=6x^2y+4y^3-6x^2y$ yoki $\varphi'(u)=4y^3$. Bundan

$\varphi(y)=y^4+C$.

Demak, $u=x^3+3x^2y^2+y^4+C$

Yoki $x^3+3x^2y^2+y^4=C$.

1. Integrallovchi ko`paytuvchi

Agar $\frac{\partial M}{\partial y}\neq\frac{\partial N}{\partial x}$ bo`lsa, u holda ba`zi bir shartlar bajarilganda, shunday μ(x,u) funksiyani topish mumkinki, μMdx+μNdy=du bo'ladi. Bu μ(x,y) funksiya integrallovchi ko`paytuvchi deyiladi.

Quyidagi hollarda integrallovchi ko`paytuvchini topish oson:

1) $\frac{\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}}{N}=\Phi(x)$ bo`lganda, $\ln\mu=\int\Phi(x)dx$ bo'ladi.

2) $\frac{\frac{\partial N}{\partial x}-\frac{\partial M}{\partial y}}{M}=\Phi_1(y)$ bo`lganda, $\ln\mu=\int\Phi_1(y)dy$ bo'ladi.

4-misol. $(y+xy^2)dx-xdy=0$ tenglamani yeching.

Yechish: Bu yerda $M=y+xy^2$, $N=-x$, $\frac{\partial M}{\partial y}=1+2xy, \quad \frac{\partial N}{\partial x}=-1, \quad \frac{\partial M}{\partial y}\neq\frac{\partial N}{\partial x}$.

Demak, tenglamaning chap tomoni biror funksiyaning to`la differensiali emas. Bu tenglamaning faqat u ga bog`liq bo`lgan integrallovchi ko`paytuvchisi bormi degan masalani qaraymiz.

$$\frac{\frac{\partial N}{\partial x}-\frac{\partial M}{\partial y}}{M}=\frac{-1-1-2xy}{y+xy^2}=-\frac{2}{y},$$

bundan

$$\ln\mu=-2\ln y, \text{ ya'ni } \mu=\frac{1}{y^2}.$$

Berilgan tenglamaning μ ga ko`paytirganda keyin

$$\left(\frac{1}{y}+x\right)dx-\frac{x}{y^2}dy=0$$

tenglama hosil bo`ladi. Bu to`la differensialli tenglamadir, chunki

$$\frac{\partial M}{\partial y}=\frac{\partial N}{\partial x}=-\frac{1}{y^2}.$$

Tenglamani yechib

$$\frac{x}{y}+\frac{x^2}{2}+C=0 \quad \text{yoki} \quad y=-\frac{2x}{x^2+2C}$$

umumiy integralni topamiz.

Quyidagi differensial tenglamalarning chap tomonlari to`liq differensialdan iborat ekanligi tekshirilsin va tenglamalar yechilsin

38. $(e^x+y+\sin y)dx+(e^y+x+x\cos y)dy=0$ J: $e^x+xy+x\sin y+e^y=C$.

39. $(x+y-1)dx+(e^y+x)dy=0$ J. $e^y+\frac{1}{2}x^2+xy-x=C$, $C=C_1+1$.

40. $(x\cos y-y\sin y)dy+(x\sin y+y\cos y)dx=0$ J: $e^x(x\sin y+y\cos y-\sin y)=C$.

41. $2xydx+(x^2-y^2)dy=0$ J: $3x^2y-y^3=C$.

42. $(2-9xy^2)xdx+(4y^2-6x^3)ydy=0$ J: $x^2-3x^3y^2+y^4=C$.

43. $\frac{y}{x}dx+(y^3+\ln x)dy=0$ J: $4y\ln x+y^4=C$.

44. $(10xy-8y+1)dx+(5x^2-8x+3)dy=0$ J: $5x^2y-8xy+x+3y=C$.

45. $3x^2(1+\ln y)dx=(2y-\frac{x^3}{y})dy$ J: $x^3+x^3\ln y-y^2=C$.

46. $2x\cos^2 ydx+(2y-x^2\sin^2 y)dy=0$ J: $x^2\cos^2 y+y^2=C$.

Quyidagi differensial tenglamalarning integrallovchi ko`paytuvchilari topilsin va tenglamalar yechilsin

47. $(x^2-y)dx+xdy=0$ J: $\mu=1/x^2$; $x+y/x=C$.

48. $y^2dx+(yx-1)dy=0$ J: $\mu=1/y$; $xy-\ln y=0$.

49. $(x^2+y^2+x)dx+ydy=0$ J: $2x+\ln(x^2+y^2)=C$.

50. $xy^2(xy'+y)=1$ J: $2x^3y^3-3x^2=C$.

51. $(x^2+3\ln y)ydx=xdy$ J: $x^2+\ln y=Cx^3$; $x=0$.

52. $2x\,\mathrm{tg}\,ydx+(x^2-2\sin y)dy=0$ J: $\mu=\cos y$; $x^2\sin y+\frac{1}{2}\cos 2y=C$.

53. $(e^{2x}-y^2)dx+ydy=0$ J: $\mu=e^{-2x}$; $y^2=(C-2x)e^{2x}$.

54. $(1+3x^2\sin y)dx-x\,\mathrm{ctg}\,ydy=0$ J: $\mu=1/\sin y$; $x/\sin y+x^3=C$.

55. $(\sin x+e^y)dx+\cos xdy=0$ J: $\mu=e^{-y}$; $e^{-y}\cos x=C+x$.

12. **Tartibini pasaytirish mumkin bo`lgan tenglamalar**

$$y^{(n)}=f(x)$$

Bunday ko`rinishdagi tenglamani n marta ketma-ket integrallash natijasida umumiy yechimi topiladi:

$$y^{(n)}=f(x),$$

$$y^{(n-1)}=\int f(x)dx+c_1=f_1(x)+c_1,$$

$$y^{(n-2)}=\int[f_1(x)+c_1]dx+c_2=f_2(x)+c_1x+c_2$$

………

$$y = f_n(x) + \frac{c_1}{(n-1)!}x^{n-1} + \frac{c_2}{(n-2)!}x^{n-2} + \ldots + c_{n-1}x + c_n, \qquad (22)$$

bu yerda $f_n(x) = \int\int\ldots\int f(x)dx^n$. (22) ni quyidagicha ham yozish mumkin:

$$y = f_n(x) + c_1x^{n-1} + c_2x^{n-2} + \ldots + c_{n-1}x + c_n$$

1-misol. $y''' = \sin x$ tenglamaning umumiy yechimi topilsin.

Yechish: $y''' = \frac{dy''}{dx}$ ekanligini e`tiborga olib, berilgan tenglamani $\frac{dy''}{dx} = \sin x$ yoki $dy'' = \sin x dx$ ko`rinishda yozish mumkin. Ketma-ket integrallab quyidagiga ega bo`lamiz:

$$y'' = \int \sin x dx + c_1 = -\cos x + c_1,$$

$$y' = \int(-\cos x + c_1)dx + c_2 = -\sin x + c_1x + c_2,$$

$$y = \int(-\sin x + c_1x + c_2)dx + c_3 = \cos x + \frac{1}{2}c_1x^2 + c_2x + c_3.$$

Demak, $y = \cos x + cx^2 + c_2x + c_3, \quad c = \frac{1}{2}c_1.$

Izlangan umumiy yechimga ega bo`ldik.

Quyidagi tenglamalarni yeching

1. $y^{IV} = \cos^2 x, \; y(0) = \frac{1}{32}, \; y'(0) = 0, \; y''(0) = \frac{1}{8}, \; y'''(0) = 0.$

2. $y''' = x\sin x, \; y(0) = 0, \; y'(0) = 0, \; y''(0) = 2.$

3. $y''' \sin^4 x = \sin 2x.$

4. $y'' = 2\sin x\cos^2 x - \sin^3 x$

5. $y''' = xe^{-x}, \; y(0) = 0, \; y'(0) = 2, \; y''(0) = 2.$

6. $y''' = \frac{6}{x^3}, \; y(1) = 2, \; y'(1) = 1, \; y''(1) = 1.$

7. $y'' = 4\cos 2x, \; y(0) = 0, \; y'(0) = 0.$

8. $y'' = \frac{1}{1+x^2}.$

9. $y'' = \frac{1}{\cos^2 x}, \; y\left(\frac{\pi}{4}\right) = \ln\sqrt{2}, \; y'\left(\frac{\pi}{4}\right) = 1.$

10. $y''' = x^{-2}.$ 11. $y^{IV} = \cos x.$

12. $y'' = \frac{1}{sin^2 x}$. 13. $y'' = xe^x$, $y(0) = 1$, $y'(0) = 2$.

14. $y'' = sin\, 2x$, $y(0) = 6$, $y'(0) = 0$.

Noma`lum funksiya oshkor holda qatnashmagan tenglamalar

$$F(x, y^{(k)}, y^{(k+1)} \ ..., y^{(n)}) = 0 \qquad (23)$$

tenglamada u funksiya oshkor holda katnashmagan.
Bu tenglamada

$$y^{(k)} = p(x)$$

almashtirishni bajarib, uni

$$F(x, p, p',,,, p^{n-k}) = 0$$

ko`rinishga keltiriladi. SHunday qilib, (23) tenglamani tartibi k birlikka pasayadi.

2-misol. $xy'' = y'\, ln\left(\frac{y'}{x}\right)$ tenglamaning umumiy yechimi topilsin.

Yechish: Bu tenglamada y funksiya oshkor holda katnashmagani uchun $y' = p(x)$ almashtirishni bajaramiz.
Bu holda, $y'' = p'$ o`rinli bo`ladi. Bularni tenglamaga qo`ysak,

$$x \cdot p' = p\, ln\frac{p}{x} \quad \text{yoki} \quad p' = \frac{p}{x} ln\frac{p}{x}.$$

Hosil bo`lgan tenglama birinchi tartibli bir jinsli tenglama bo`lganidan $\frac{p}{x} = t$ yoki $p = x \cdot t$ almashtirishni bajarsak, $p' = t + xt'$ ga ega bo`lamiz. Buni e`tiborga olib, tenglamani $t + xt' = t\, ln\, t$ yoki $xt' = t(ln\, t - 1)$ ko`rinishda yozish mumkin. O`zgaruvchilarni ajratsak,

$$\frac{dt}{t(ln\, t - 1)} = \frac{dx}{x}$$

tenglamaga ega bo`lamiz. Integrallash natijasida

$$ln(ln\, t - 1) = ln\, x + ln\, c_1 \text{ ёки } ln\, t - 1 = c_1 x,$$

bundan esa $t = e^{c_1 x + 1}$ kelib chiqadi. $t = \frac{p}{x}$ ekanini e`tiborga olsak,

$$p = xe^{c_1 x + 1}$$

hosil bo`ladi. $p(x) = y'$ dan $y' = xe^{c_1 x + 1}$ tenglik hosil bo`ladi.
Bundan esa izlangan umumiy yechim

$$y = \int xe^{c_1 x + 1} dx = \frac{1}{c_1} xe^{c_1 x + 1} - \frac{1}{c_1^2} e^{c_1 x + 1} + c_2$$

ko`rinishda hosil bo`ladi.

3-misol. $y'''(x - 1) - y'' = 0$ tenglamaning

$y(2)=2, \quad y'(2)=1, \quad y''(2)=1$ shartlarni qanoatlantiruvchi yechimi topilsin.

Yechish: $y''=p(x)$ va $y'''=p'$ almashtirish bajarsak, dastlabki tenglama $p'(x-1)=p$ yoki $\frac{dp}{p}=\frac{dx}{(x-1)}$ ko`rinishga keladi. Integrallash natijasida $ln\, p=ln(x-1)+ln\, c_1$ yoki $p=c_1(x-1)$ yechim hosil bo`ladi. Dastlabki belgilashni e`tiborga olib, $y''=c_1(x-1)$ natijaga ega bo`lamiz. Bu esa tartibi pasayadigan tenglamadan iborat. Ketma-ket integrallab:

$$y'=\int c_1(x-1)dx+c_2=\frac{1}{2}c_1x^2-c_1x+c_2,$$

$$y=\int\left(\frac{1}{2}c_1x^2-c_1x+c_2\right)dx+c_3=\frac{c_1}{6}x^3-\frac{c_1}{2}x^2+c_2x+c_3$$

umumiy yechimni hosil qilamiz. CHetki shartlarni e`tiborga olib

$y''(2)=1$ dan $1=c_1(2-1)$ yoki $c_1=1,$

$y'(2)=1$ dan $1=\frac{1}{2}\cdot 4-2+c_2$ yoki $c_2=1,$

$y(2)=2$ dan $2=\frac{8}{6}-\frac{4}{2}+2+c_3$ yoki $c_3=\frac{2}{3}$

natijalarni hosil qilamiz. Bundan esa xususiy yechimni

$$y=\frac{1}{6}x^3-\frac{1}{2}x^2+x+\frac{2}{3}$$

topamiz.

Quyidagi tenglamalarni yeching

15. $x^3y''+x^2y'=1$
16. $y''+y'tgx=sin\,2x$
17. $y''x\,ln\,x=y'$
18. $xy''-y'=e^x\cdot x^2$
19. $y''+2xy'^2=0$
20. $(1-x^2)y''-xy'=2$
21. $2xy'''\cdot y''=y''^2-a^2$
22. $(1+x^2)y''+1+y'^2=0$
23. $x^2y''=y'^2$
24. $y''(e^x+1)+y'=0$
25. $(1+x^2)y''+2xy'=x^3$
26. $y''tgx=y'+1$
27. $xy''+y'+x=0$
28. $y''-\frac{1}{x-1}y'=x(x-1), y(2)=1, y'(2)=-1$
29. $xy''=y'+x\,sin\frac{y'}{x}$
30. $(1-x^2)y''+xy'=2$

Argument oshkor holda qatnashmagan tenglama

$$F\left(y, y', y'', \ldots y^{(n)}\right) = 0$$

tenglamada erkli o`zgaruvchi x oshkor holda ishtirok etmaydi.
Bu tenglama

$$y' = p(y) \qquad (24)$$

almashtirish bilan tartibini bittaga pasaytirib yechiladi.

(24) almashtirishda: $y'' = p'(y) \cdot y' = p \cdot p'$,

va $y''' = p\left[p \cdot p'' + p'^2\right]$,...

o`rniga qo`yishlar bajariladi.

4-misol. $1 + y'^2 = y \cdot y''$ tenglamaning umumiy yechimini toping.

Yechish: $y' = p(y)$ va $y'' = pp'$ almashtirishlarni bajarsak, dastlabki tenglama

$1 + p^2 = y \cdot p \cdot p'$ ko`rinishga keladi, bu esa birinchi tartibli o`zgaruvchilari ajraladigan tenglamadir.

O`zgaruvchilarni ajratib, $\dfrac{pdp}{1 + p^2} = \dfrac{dy}{y}$ tenglamani hosil qilamiz.

Tenglikni integrallab, quyidagiga ega bo`lamiz:

$\dfrac{1}{2} ln\left|1 + p^2\right| = ln\, y + ln\, c_1$ yoki $1 + p^2 = c_1^2 y^2$, $p = \pm\sqrt{c_1^2 y^2 - 1}$. Dastlabki o`zgaruvchi y ga qaytib $y' = \pm\sqrt{c_1^2 y^2 - 1}$ yoki $\dfrac{dy}{\sqrt{c_1^2 y^2 - 1}} = \pm dx$ natijaga ega bo`lamiz.

Tenglikni integrallab $\dfrac{1}{c_1} ln\left(c_1 y + \sqrt{c_1^2 y^2 - 1}\right) = \pm(x + c_2)$ yoki

$y = \dfrac{1}{2c_1}\left(e^{\pm(x + c_2)c_1} + e^{\pm(x + c_2)c_1}\right) = \dfrac{1}{c_1} ch c_1 (x + c_2)$ izlangan umumiy yechimni hosil qilamiz.

Quyidagi tenglamalarni yeching

31. $y \cdot y'' + y'^2 = 0$
32. $y'' + 2y(y')^3 = 0$
33. $y'' tgy = 2y'^2$
34. $y''(2y + 3) - 2y'^2 = 0$
35. $y(1 - ln\, y)y'' + (1 + ln\, y)y'^2 = 0$
36. $y''(1 + y) = y'^2 + y'$
37. $yy'' + y = y'^2$
38. $y'^2 + 2yy'' = 0$
39. $yy'' - y'^2 = 0$, $y(0) = 1, \quad y'(0) = 2$

40.Egrilik radiusining oy o`qdagi proeksiyasi o`zgarmas a bo`lib $ox$ o`q bilan esa koordinata boshida kesishuvchi egri chiziq tenglamasini tuzing.

Ж: x $\sqrt{p}$ =lnp+C, y= $\sqrt{p}$ (4-lnp-C); y=0 .

41. Suyuqlikka tashlangan m massali jism o`z og`irligi tufayli cho`ka boshladi. Agar suyuqlik qarshiligi jism tezligiga proporsional bo`lsa, harakat qonunini toping.

J: x=C(p-1)-2+2p+1, y=Cp^2(p-1)-2+p^2; y=0; y=x-2

42. $2y\,y'' = (y')^2$ J: xp2=p+C, y=2+2Cp-1-lnp.

43. $y''y^3 = 1$ J: y= y=Cx-lnC; y=lnx+1 .

44. $2y\,y'' = 1 + y'^2$ J: Cx-C2; maxsus integral y= $\frac{x^2}{4}$

45. $y \cdot y'' = y'^2 + y^2\, ln\, y$ J: y=Cx-a $\sqrt{1+c^2}$; maxsus integral x^2+y^2=a^2

46. $y'' = y' / \sqrt{y}$ J: y=Cx+ $\frac{1}{2c^2}$; maxsus integral y=1,5x $^{\frac{2}{3}}$

14.O`zgarmas koeffisientli chiziqli bir jinsli tenglama

1-misol. $y'' - 7y' + 6y = 0$ tenglamaning umumiy yechimi topilsin.

Yechish: $k^2 - 7k + 6 = 0$ xarakteristik tenglamani tuzib, $k_1 = 1$ va $k_2 = 6$ ildizlarga ega bo`lamiz, bularga esa $e^x$ va $e^{6x}$ xususiy yechimlar, mos keladi. Bu yechimlar chiziqli erkli bo`lganidan, umumiy yechim (33) formulaga asosan quyidagi ko`rinishda yoziladi:

$$y = c_1 e^x + c_2 e^{6x}$$

2-misol. $y^{IV} - 13y'' + 36y = 0$ tenglamaning umumiy yechimi topilsin.

Yechish: Xarakteristik tenglama
$k^4 - 13k^2 + 36 = 0$ ko`rinishda bo`lib, uning ildizlari $k_{1,2} = \pm 3,\ k_{3,4} = \pm 2$. Bunga mos $e^{-3x}, e^{3x}, e^{-2x}, e^{2x}$ funksiyalar chiziqli erkli bo`lganligidan, umumiy yechim (33) formulaga asosan

$$y = c_1 e^{-3x} + c_2 e^{3x} + c_3 e^{-2x} + c_4 e^{2k}.$$

Quyidagi tenglamalarning umumiy yechimlari topilsin

1. $y'' - 4y' + 3y = 0$
2. $y'' - 4y' + 4y = 0$
3. $y'' - 4y' + 13y = 0$
4. $y'' - 4y = 0$
5. $y'' + 4y = 0$
6. $y'' + 4y' = 0$
7. $y'' - y' - 2y = 0$
8. $y'' + 25y = 0$
9. $y'' - y' = 0$
10. $y'' + 4y' + 4y = 0$

11. $y^{IV} - 2y''' + y'' = 0$

12. $y^{IV} + a^4 y = 0$

13. $y^{IV} + 5y'' + 4y = 0$

14. $y'' - 3y' + 2y = 0$

Quyidagi tenglamalarning boshlang`ich yoki chetki shartlarni qanoatlantiruvchi yechimi topilsin

15. $y'' + 5y' + 6y = 0, \quad y(0) = 1, \quad y'(0) = -6$

16. $y'' - 10y' + 25y = 0, \quad y(0) = 0, \quad y'(0) = 1$

17. $y'' - 2y' + 10y = 0, \quad y\left(\frac{\pi}{6}\right) = 0, \quad y'\left(\frac{\pi}{6}\right) = e^{\frac{\pi}{6}}$

18. $y'' + 3y' = 0, \quad y(0) = 1, \quad y'(0) = 2$

19. $y'' + 9y = 0, \quad y(0) = 0, \quad y\left(\frac{\pi}{4}\right) = 1$

20. $y'' + y = 0, \quad y(0) = 1, \quad y'\left(\frac{\pi}{3}\right) = 0$

21. $9y'' + y = 0, \quad y\left(\frac{3\pi}{2}\right) = 2, \quad y'\left(\frac{3\pi}{2}\right) = 0.$

22. $y'' - y = 0, \quad y(0) = 2, \quad y'(0) = 4.$

23. $y'' + 2y' + 2y = 0, \quad y(0) = 1, \quad y'(0) = 1.$

15. O'zgarmas koeffisientli chiziqli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamalar

1-misol. $y'' + y' - 2y = \cos x - 3\sin x$ tenglamaning $y(0) = 1, \quad y'(0) = 2$ boshlang`ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimi topilsin.

Yechish: Xarakteristik tenglama $k^2 + k - 2 = 0$, uning yechimlari esa $k_1 = -2, \quad k_2 = 1$ bo`lgani uchun bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi

$$y = c_1 e^{-2x} + c_2 e^x$$

ko`rinishda bo`ladi. $f(x) = e^{0x}(\cos x - 3\sin x)$, ya`ni $\alpha = 0, \ \beta = 1$ bo`lgani uchun xususiy yechimni (43) formulaga asosan

$$U(x) = A\cos x + B\sin x$$

ko`rinishda izlaymiz. $U(x)$ ni tenglamaga qo`ysak:

$-A\cos x - B\sin x - A\sin x + B\cos x - 2A\cos x - 2B\sin x = \cos x - 3\sin x$ yoki $(B - 3A)\cos x - (3B + A)\sin x = \cos x - 3\sin x$.

Mos koeffisientlarni tenglab, quyidagi sistemaga ega bo`lamiz:

$$\begin{cases} B - 3A = 1, \\ 3B + A = 3, \end{cases} \quad \text{yoki} \quad A = 0, \ B = 1$$

Bundan esa umumiy yechim $y = c_1 e^{-2x} + c_2 e^x + \sin x$ ko`rinishda ekanligini topamiz. $c_1$ va $c_2$ koeffisientlarni topish uchun boshlang`ich shartlardan foydalanib, quyidagi sistemani hosil qilamiz: $\begin{cases} c_1 e^0 + c_2 e^0 + \sin 0 = 1, \\ -2c_1 e^0 + c_2 e^0 + \cos 0 = 2, \end{cases}$ yoki $c_1 = 0,\ c_2 = 1$. Demak, $y = e^x + \sin x$ izlangan yechim bo`ladi.

3-misol. $y'' + y = xe^x + 2e^{-x}$ tenglamaning umumiy yechimini toping.

Yechish: Xarakteristik tenglama $k^2 + 1 = 0$, uning ildizlari esa $k_{1,2} = \pm i$ bo`ladi. SHuning uchun bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi

$$y = c_1 \cos x + c_2 \sin x$$

ko`rinishda bo`ladi. $f(x) = f_1(x) + f_2(x) = xe^x + 2e^{-x}$ bo`lgani uchun $\alpha_1 = 1,\ \alpha_2 = -1,\ \beta_1 = \beta_2 = 0,\ p_1(x) = x$ demak, xususiy yechimni $U(x) = U_1(x) + U_2(x) = (Ax + B)e^x + Ce^{-x}$ ko`rinishda izlaymiz. Tegishli hosilalarni hisoblab tenglamaga qo`ysak:

$$2Ae^x + (Ax + B)e^x + Ce^{-x} + (Ax + B)e^x + Ce^{-x} = xe^x + 2e^{-x},$$

$$(2Ax + 2A + 2B)e^x + 2Ce^{-x} = (1x + 0)e^x + 2e^{-x}.$$

Noma`lum koeffisientlarni aniqlash uchun quyidagi sistemani hosil qilamiz:

$$\begin{cases} 2A = 1, \\ 2A + 2B = 0, \\ C = 1. \end{cases} \quad \text{yoki} \quad A = \frac{1}{2},\ B = -\frac{1}{2},\ C = 1.$$

Demak, dastlabki tenglamaning umumiy yechimi quyidagicha bo`ladi

$$y = c_1 \cos x + c_2 \sin x + \frac{1}{2}(x - 1)e^x + e^{-x}.$$

Quyidagi tenglamalarni yeching

1. $y'' - 2y' + y = e^{2x}$
2. $y'' - 4y = 8x^3$
3. $y'' + 3y' + 2y = \sin 2x + 2\cos 2x$
4. $y'' + y = x + 2e^x$
5. $y'' + 3y' = 9x$
6. $y'' + 4y' + 5y = 5x^2 - 32x + 5$
7. $y'' - 3y' + 2y = e^x$
8. $y'' + 5y' + 6y = e^{-x} + e^{-2x}$

9. $y''' + y'' = 6x + e^{-x}$

10. $y'' + y' - 2y = 6x^2$

Differentsial tenglamalar sistemasi.

1-misol**.** Sistemaning yechimini toping.

$$\begin{cases} \dfrac{dx}{dt} = x - 5y; \\ \dfrac{dy}{dt} = 2x - y. \end{cases}$$

Yechish. Berilgan sistemaning xarakteristik tenglamasi

$$\begin{vmatrix} 1-r & -5 \\ 2 & -1-r \end{vmatrix} = r^2 + 9 = 0$$

ko'rinishda bo'lib, u $r_{1,2} = \pm 3i$ ildizlarga ega.

sistemaga ega bo'lamiz. $r_1 = 3i$ uchun

$$\begin{cases} (1-3i)\lambda_1 - 5\mu_1 = 0, \\ 2\lambda_1 - (1+3i)\mu_1 = 0. \end{cases}$$

$\lambda_1 = 5$ deb, $\mu_1 = 1 - 3i$ ni topamiz. U holda

$$x_1 = 5e^{3it}, \qquad y_1 = (1-3i)e^{3it}$$

xususiy yechimlarni topamiz. $r_2 = -3i$ ni qo'yib, $\lambda_2 = 5,$ $\mu_2 = 1 + 3i$ larni topamiz.

U holda xususiy yechimlar

$$x_2 = 5e^{-3it}, \qquad y_1 = (1+3i)e^{-3it}$$

ko'rinishda bo'ladi.

Yangi fundamental yechimlar sistemasiga o'tamiz:

$$\left.\begin{array}{ll} \overline{x_1} = \dfrac{x_1 + x_2}{2}, & \overline{x_2} = \dfrac{x_1 - x_2}{2}, \\ \overline{y_1} = \dfrac{y_1 + y_2}{2}, & \overline{y_1} = \dfrac{y_1 - y_2}{2}, \end{array}\right\}$$

Bundan Eyler formulasi $e^{\pm \alpha i t} = \cos \alpha t \pm i \sin \alpha t$ dan foydalanib

$$\overline{x_1} = 5\cos 3t, \quad \overline{x_2} = 5\sin 3t,$$

$$\overline{y_1} = \cos 3t + 3\sin 3t, \quad \overline{y_2} = \sin 3t - 3\cos 3t$$

larni topamiz.

U holda berilgan sistemaning umumiy yechimi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$x(t) = 5C_1 \cos 3t + 5C_2 \sin 3t;$$

$$y(t) = C_1(\cos 3t + 3\sin 3t) + C_2(\sin 3t - 3\cos 3t).$$

2-misol**.** Sistemaning yechimini toping.

$$\begin{cases} \frac{dx}{dt} = 2x + y, \\ \frac{dy}{dt} = 4y - x. \end{cases}$$

Yechish**.** Sistemaning xarakteristik tenglamasi

$$\begin{vmatrix} 2-r & 1 \\ -1 & 4-r \end{vmatrix} = r^2 - 6r + 9 = 0$$

$r_1 = r_2 = 3$ ildizga ega. Sistemaning yechimini

$$\begin{cases} x = (\lambda_1 + \mu_1 t)e^{3t}, \\ y = (\lambda_2 + \mu_2 t)e^{3t} \end{cases}$$

ko'rinishda izlash kerak. $3(\lambda_1 + \mu_1 t) + \mu_1 = 2(\lambda_1 + \mu_1 t) + (\lambda_2 + \mu_2 t)$ tenglikka ega bo'lamiz. Chap va o'ng tomondagi bir xil darajali t ning koeffitsientlarini tenglashtirib

$$\begin{cases} 3\lambda_1 + \mu_1 = 2\lambda_1 + \lambda_2, \\ 3\mu_1 = 2\mu_1 + \mu_2 \end{cases}$$

sistemani hosil qilamiz. Bundan

$$\begin{cases} \lambda_2 = \lambda_1 + \mu_1, \\ \mu_2 = \mu_1 \end{cases}$$

ni topamiz. λ_1 va μ_1 sonlarni ixtiyoriy parametr deb olishimiz mumkin. $\lambda_1 = C_1$ va $\mu_2 = C_2$ deb belgilasak, (55) sistemaning umumiy yechimi

$$\begin{cases} x = (C_1 + C_2 t)e^{3t}, \\ y = (C_1 + C_2 + C_2 t)e^{3t} \end{cases}$$

ko'rinishda bo'ladi.

Darsda yechish uchun misollar

Differentsial tenglamalar sistemasini yeching.

